

bo'yicha o'qishni davom ettirish, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va nufuzli xorijiy kompaniyalarda malakaviy amaliyot o'tash imkoniyati beriladi. Respublikamizda va jahonda talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarda yetuk, istiqbolli mutaxassislar, ayniqsa, pedagog va ilmiy kadrlarni tayyorlash, ularni xorijdagi nufuzli ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish ishlarini tashkillashtirish belgilab olindi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda ekologik ta'lim tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, yoshlar o'rtasida ekologik bilim va madaniyatni keng targ'ib qilish, ekologiya sohasini ilg'or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirish, yoshlarni ona tabiatni sevish uni ko'z qorachig'idek asrashni targ'ib qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada ekologik ta'limni muvofaqqiyatli tashkil etish uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, shuningdek, ta'lim sohasida ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy metodik muassasalar va ularga qarashli tashkilotlar orqali joriy etilmog'i lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81 sonli farmoni.
2. Бирлашган миллатлар ташкилоти европа иктисодий комиссияси. Атроф – муҳит ҳолатининг шарҳи // ЕИК/СЕР/156. 2010., 8-12-Б.
3. А.Эргашев. Т.Эргашев. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш// Янги аср авлоди 2015 72-Б

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI HUQUQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DEONTOLOGIK YONDASHUV

Munira Raupova Murodovna

**O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya
kafedrasi o'qituvchisi (PhD)**

Annotatsiya: Maqolda bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmun mohiyati, huquqiy kompetentlik tushunchasi ta'rifiga olimlarning yondashulari asosida yoritib berilgan. Bunda bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy kompetentligini rivojlantirishda deontologik yondashuvning ahamiyati tahlili qilingan. Deontologik yondashuv mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish texnologiyasining tasnifiy belgilari, maqsadga yo'nalganlik jihatlari, texnologiyaning konseptual qoidalari va tamoyillari yoritib berilgan

Kalit so'zlar: kompetensiya, huquqiy kompetentlik, deontologik yondashuv, kasbiy fazilat, huquqiy ijtimoiylashuv, axloq, burch, xulq-atvor, kognitiv, aksiologik hissiy, refleksiv, ratsional, funksional komponentlar

ДЕОНТОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В РАЗВИТИИ ПРАВОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В статье раскрыта сущность развития правовой компетентности будущих учителей, выделено определение понятия правовой компетентности на основе подходов ученых. Проанализировано значение деонтологического подхода в развитии правовой компетентности будущих учителей. На основе содержания и особенностей деонтологического подхода выделены классификационные особенности технологии правовой социализации будущих учителей, аспекты целевой направленности, концептуальные правила и принципы технологии.

Ключевые слова: компетентность, правовая компетентность, деонтологический подход, профессиональная добродетель, правовая социализация, этика, долг, поведение, когнитивный, аксиологический, эмоциональный, рефлексивный, рациональный, функциональный компоненты

DEONTOLOGICAL APPROACH IN DEVELOPING THE LEGAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation: In the article, the essence of the development of legal competence of future teachers, the definition of the concept of legal competence is highlighted based on the approaches of scientists. The importance of the deontological approach in the development of legal competence of future teachers was analyzed. On the basis of the content and specific features of the deontological approach, the classification features of the technology of legal socialization of future teachers, aspects of goal orientation, conceptual rules and principles of the technology are highlighted.

Keys words: competence, legal competence, deontological approach, professional virtue, legal socialization, ethics, duty, behavior, cognitive, axiological, emotional, reflexive, rational, functional components

Jamiyat rivojining muhim talablaridan biri – shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qiladigan, demokratik davlat va jamiyat qonun qoidalariga rioya qiladigan yosh avlodni tarbiyalashdir. Bu esa, o‘z-o‘zidan yosh avlod tarbiyachisi hisoblangan pedagoglarni huquqiy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Huquqiy kompetensiya - bu bilimlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar, shaxsiy munosabatlar va xulq-atvor usullari birlikda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy harakatning murakkab xarakteristikasi [7]. Hozirgi vaqtda huquqiy kompetensiyaning mohiyatini tushunishga turlicha yondashuvlar mavjud. N.I. Igolevichning so‘zlariga ko‘ra, “huquqiy kompetensiya deganda shaxsning huquqiy sohada ijtimoiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradigan bunday bilim, ko‘nikma, munosabat, shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar majmui tushunilishi kerak”[8].

A.V Karevaning fikriga ko'ra, "Huquqiy kompetensiya mutaxassisni kasbiy tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, umumiy kompetensiyasining maqsadi sifatida u huquqiy bilim va ko'nikmalarni nazariy asos va umuman mutaxassisning huquqiy tarkibiy qismi sifatida shakllantirishni o'z ichiga oladi. Pedagogika fanida huquqiy kompetensiya atamasi uning adolat tuyg'usi darajasi va axloqiy huquqiy normalarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Huquqiy nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy kompetensiyada asosiy e'tibor huquqiy tarbiya va o'qituvchining huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchi davlatning huquqiy siyosatining faol ishtirokchisi sifatida jamiyat ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishda, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquqlariga qat'iy rioya qilishi, ularning manfaatlarini himoya qilishi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini tushunishi, huquqiy munosabatlarda ishtirok etishning ijobiy tajribasini o'zlashtirib olishlari, qonuniy xulq-atvorning shaxsiy ma'nosini anglab etishlari, ijtimoiy ahamiyatga ega huquqiy bilim va ko'nikmalarni egallashlari kerak bo'ladi. Ana shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarini huquqiy kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini o'rganishda deontologik yondashuvni taqozo etadi.

Deontologik yondashuvning rivojlanish tarixi I. Bentamning axloqiy-ijtimoiy konsepsiyasidan kelib chiqadi, bu yerda axloq va huquq o'rtasidagi masala o'rganiladi. I. Bentam qonunchilik san'ati va xulq-atvorning axloqiy meyorlari bir hodisaning ikki tomonidan boshqa narsa emasligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, deontologiya deganda axloq ma'lum kasb vakillarining xulq-atvorini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bilan birgalikda ko'rib chiqiladigan bilim sohasi sifatida belgilanadi. O'qituvchining deontologik tayyorgarligi uzluksiz kasbiy va pedagogik tayyorgarlik tizimida shakllangan ijtimoiy-pedagogik ta'limdir. U o'z mohiyatiga ko'ra o'qituvchining kasbiy-pedagogik burch talablari orqali axloqiy yo'naltirilgan tayyorgarlik natijasi bo'lib, xulq-atvori va kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Deontologiya (yunoncha deontos δέον — "to'g'ri", logos — ta'lim) xodimlarning to'g'ri kasbiy xulq-atvori, kasbiy va axloqiy burchlari to'g'risidagi fan, faoliyat subyektlari xulq-atvorning axloqiy meyorlari va tamoyillari yig'indisini o'rganadi [3;. 226-230-b.].

Deontologiyaning asosiy kategoriyalari, "axloq", "burch", "xulq-atvor"ning yordami bilan inson faoliyatining ijtimoiy va kasbiy shartlashishini tushuntirish mumkin, ammo ular xatti-harkatlarning ichki dinamikasini yomon ochib beradi (ya'ni, ular nima uchun inson kasbiy talablarga muvofiq harakat qiladi yoki yo'q degan savolga javob bermaydi) va tabiiyki, buni to'ldirish kerak bo'ladi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish o'qituvchi kasbi talablarining individual o'ziga xosliklariga e'tibor qaratish muhimligini ko'rsatadi. Ana shunday o'ziga xosliklardan biri axloqiy tamoyildir. Axloqiy tamoyil deontologik yondashuvning yanada rivojlanishi va mustahkamlash yo'lida amalga oshiriladi. Bir qancha asarlarda keltirilishicha, 20-asrning boshlarida nazariy va amaliy deontologiya alohida ajratilgan:

-nazariy deontologiya-bu shaxsning mutaxassis va ma'lum bir kasblar guruhi vakili sifatidagi to'g'ri xulq-atvori haqidagi ilmiy bilimlar sohasi;

-amaliy deontologiya insonning kasbiy burchlarini va umuman hayotini amalga oshirishdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi muayyan normalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Mahalliy va xorijiy mualliflarning bo'lajak o'qituvchilarni deontologik tayyorlash muammosiga bag'ishlangan ishlarini nazariy tahlil qilish natijasida biz, bo'lajak o'qituvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga deontologik tayyorgarligining muhim xususiyatlari axloqiy va xulq-atvorda ikkilanish holatlarida adekvat qarorlar qabul qilish qobiliyatini aks ettiruvchi shaxsning integrativ tizimli-tarkibiy tarbiyasini aniqladik. Bunda bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy ijtimoiylashuvi tizimli tuzilma sifatida deontologik tayyorgarlikning shunday tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladiki, ular o'zaro bog'liqlikda o'qituvchi shaxsining ma'naviy va axloqiy barqarorligini, o'z ishining natijalariga ma'suliyat bilan munosabtda bo'lishni, burchga rioya qilish va tegishli professional guruh vakili sifatida sha'nini saqlashni ta'minlaydi. Shu munosabat bilan deontologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirishning lokal-modulli darajadagi texnologiyasini ishlab chiqish zarur degan xulosaga kelindi. Texnologiyani ishlab chiqishda deontologik yondashuvning mezonlari (kognitiv-aksiologik, kasbiy-xulq-atvor, refleksiv mezon) hamda namoyon bo'lish komponentlari (kognitiv, aksiologik, hissiy, refleksiv, ratsional, funksional) va ularni o'qituvchilik kasbi faoliyatida amalga oshirish usullari hamda ularning shaxsiyatining deontologik fazilatlarini; axloqiy aks ettirish, ma'naviy va axloqiy barqarorlik, ishonchlilik, ma'suliyat, ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar va motivlar, axloqiy his-tuyg'ular asos qilib olindi.

Deontologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish texnologiyasining tasnifiy belgilari quyidagicha belgilab olindi: qo'llanish darajasi va tavsifi:

1) lokal darajada qo'llanilish tavsifiga ega mezotexnologiya; falsafiy asosi: antropotsentrik, ilmiy, dialogik;

2) metodologik yondashuvi: shaxsga yo'naltirilgan, qadriyatga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv;

3) rivojlanishning yetakchi omillari: sotsiogen, psixogen;

4) tajribani o'zlashtirishning ilmiy konsepsiyasi: assosiativ-refleksiv, xulq-atvor, rivojlanuvchi;

5) shaxsiy tuzilmalariga ko'ra; axborot (huquqiy bilim ko'nikmalarni rivojlantirish) operativ (aqliy harakat usullarini shakllantirish), hissiy-badiiy va hissiy-axloqiy (estetik va axloqiy munosabatlarni sohasini rivojlantirish), o'z-o'zini rivojlantirish (shaxsni o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari) amaliy (samarali amaliy sohani rivojlantirish);

6) mazmun va tuzilish xususiyatiga ko'ra: o'qitish va tarbiyalash, kasbiy yo'naltirilgan;

7) ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi: ta'limiy (didaktik), tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;

8) qo'llaniladigan metodlari: reproduktiv, tushuntirish-illyustrativ, rivojlantiruvchi, dialogik, kommunikativ, ijodiy axborot(kompyuter) va boshqalar;

9) jamoaviy qo'llaniladigan vositalari: tarqatma materiallar, mavzuga oid videoroliklar, multimediya;

10) ta'lim oluvchiga yondashuv va tarbiyaviy o'zaro harakat tavsifi: shaxsga yo'naltirilgan;

11) mavjud an'anaviy tizimni modernizatsiya qilish: o'quv materialini uslubiy takomillashtirish va didaktik qayta qurish asosidagi pedagogik texnologiyasi;

12) qo'llanish toifasiga ko'ra: pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun.

Texnologiyaning maqsadga yo'nalganlik jihatlari:

jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqlikda texnologiyaning maqsadga yo'naltirilganligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: oliy ta'limda insonparvarlik paradigmasi g'oyalari asosida o'qituvchilik kasbida qadriyat-semantik o'z-o'zini rivojlantirish, munosabat va faoliyatni faollashtirish orqali bo'lajak mutaxassisning "inson sifatini" rivojlantirishga qaratilgan maydonni barpo etish malakalarini rivojlantirish;

individual yondashuv nuqtai nazardan: insonparvarlik yo'nalishi, izchillik, qadriyat, dialog tamoyillarini o'rganish; potensial-axloqiy realga tarjima qilish; ta'lim makonini tashkil etishni modellashtirish va loyihalashni o'rganish, pedagogik faoliyatda shaxsiy rivojlanish va xulq-atvorning kasbiy va axloqiy standartlarini ta'lim maydoni subyektiga interfaol ta'minlash malakalarini rivojlantirish.

Texnologiyaning konseptual qoidalari va tamoyillari:

-nazariy kasbiy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni o'qituvchining axloqiy va amaliy faoliyatiga kasbiy xulq-atvoriga bo'lgan ehtiyojlari bilan bog'lash asosida rivojlantirish, mutsahkamlash va o'zaro bog'lash;

-professional, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi kasbiy ta'limning vorislik imkoniyatlarini kengaytirish, o'qituvchining deontologik fazilatlarini shakllantirish jarayoniga ta'siri, ularning deontologik tayyorgarligini samarali rivojlantirishga ko'maklashish;

-kasbiy mahorat, ma'naviy, axloqiy fazilatlarni o'z ichiga olgan shaxsning deontologik yo'nalishining eng yuqori shaklidagi o'qituvchilarni shakllantirish va ularni kasbiy xulq-atvor va kasbiy faoliyatga amalga oshirish;

Bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirishda o'qituvchining deontologik tayyorgarligini shakllantirish konsepsiyasi doirasida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik, birgalikdagi samarali faoliyat, bo'lajak o'qituvchining deontologik fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanadi;

-ta'limni insonparvarlashtirish, umuminsoniy qadriyatlar (vijdon, sevgi, bag'rikenglik) asosida ta'lim oluvchilarning deontologik tafakkurini rivojlantirish;

-o'qitishning o'zgaruvchanligi ta'lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda kasbiy tayyorgarlik jarayonida amalga oshiriladigan dasturlarni keng tanlash imkoniyati;

-madaniy, psixologik-pedagogik va maxsus deontologik tayyorgarlikning birligi va yaxlitligi;

-deontologik ta'limning kasbga qadar, kasbiy va oliy o'quv yurtidan keyingi tayyorgarlik bosqichlarida uzluksizligi;

-bo'lajak o'qituvchining deontologik ta'limga moslashuvi, o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik jarayonida ularda shakllangan yuksak axloqiy fazilatlar, xuquqiy bilim va qadriyatlar, kasbiy xulq-atvor asosida o'zgaruvchan ijtimoiy sharoit va mehnat bozori talablariga moslasha olish qobiliyati.

-o'qituvchining deontologik tayyorgarligining tuzilishi axloqiy va mafkuraviy munosabatlarga asoslanadi va aksiologik bloklarning munosabatlarini o'z ichiga oladi:

A) maqsadli (o'qituvchi shaxsini kasbiy xulq-atvorga va ma'naviy-axloqiy o'zini-o'zi takomillashtirishga yo'naltirilgan) operativ faoliyat ("axloqiy, amaliy va kasbiy faoliyatning asboblari to'plami");

B) identifikatsiya (yego sohalari sifatida mavjud bo'lgan ma'naviy qadriyatlar - "Men-konseptual", "Men axloqiy", "Men mafkuraviy").

Zamonaviy ta'lim tizimi talabaning ta'lim subyekti pozitsiyasiga o'tishni boshlaydi va keyinchalik o'zini o'zi belgilash, o'zini o'zi tashkil etish, o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi anglash jarayonlarini faollashtiradi. Ayrim talabalarda "o'zini o'zi anglash", subyektivlik va "sezgi shakllanishi" shaxsiy mexanizmlari yaxshi rivojlangan, bu o'quv motivatsiyasini kasbiy rivojlanishga yo'naltiradi va o'qituvchilik kasbi burchi va ma'suliyatining oshishiga xizmat qiladi.

Texnologiyaning **kognitiv komponenti** quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi: a) kognitiv-aksiologik darajada: o'qituvchining kasbiy burchi, pedagogik faoliyatining turli subyektlari bilan kasbiy munosabatlar etikasi to'g'risidagi bilimlar tizimining mavjudligi, b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog'liqlikda: pedagogik jarayon subyektlari harakatlarining motivatsiyasini tushunish, o'qituvchining kasbiy etikasi, kasbiy madaniyat va ishbilarmonlik etikasini bilish, v) refleksiv bog'liqlikda: o'qituvchilik kasbini huquqiy tartibga solish bo'yicha bilimlarning sifati va mazmunligini aks ettirish;

2) **aksiologik komponent**: a) kognitiv-aksiologik darajada: ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar tizimi va o'qituvchining mazmunli hayotiy yo'nalishlari, shaxsiyatining kasbiy yo'nalishi, mehnat va kasbiy martabaning ijtimoiy markazlashtirilgan motivlarining rivojlanishi; b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog'liqlikda: axloqiy va insonparvarlik tamoyillari asosida aloqa o'rnatish, xushmuomalalik, bag'rikenglik, insonparvarlik ko'rsatish qobiliyati, v) refleksiv bog'liqlikda: pedagogik faoliyatning turli subyektlari bilan kasbiy va shaxsiy o'zaro munosabatlar usullarini bilishi;

3) **hissiy komponent**: a) kognitiv-aksiologik darajada: axloqiy va xulq-atvor tanlovi, vijdon, burch, sha'ni va adolat tuyg'usi, shaxsning ma'naviy va axloqiy barqarorlik darajasi bilan bog'liq hissiy tajribalar, b) kasbiy-xulq-atvor bilan

bog'liqlikda: axloqiy va insonparvarlik tamoyillari asosida o'z hissiy holatini boshqarish qobiliyati, v) refleksiv bog'liqlikda: pedagogik faoliyatning turli subyektlari bilan kasbiy va shaxsiy o'zaro munosabatlarning oqibatlarini bashorat qilish uchun individual usullar va texnikalar tizimiga ega bo'lishi;

4) **refleksiv komponent:** a) kognitiv-aksiologik darajada: axloqiy aks ettirishning rivojlanish darajasini, kuchli va zaif tomonlarini adekvat baholash qobiliyatini, shaxsning deontologik xususiyatlarining rivojlanish darajasi; b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog'liqlikda: issiy, xulq-atvor reaksiyalari kasbiy faoliyatning qiyin vaziyatlarida qo'llay olish; v) refleksiv bog'liqlikda: kasbiy va shaxsiy o'zaro munosabatlarning deontologik rivojlanish darajasi;

5) **ratsional komponent:** a) kognitiv-aksiologik darajada: kasbiy o'zaro ta'sir holatlarini oqilona baholash qobiliyati, b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog'liqlikda: adekvat mustqail tanlovga tayyorgarlik va ikkilanish holatlarida ma'naviy va axloqiy qaror qabul qilish uchun irodali harakatlar; v) refleksiv bog'liqlikda: pedagogik faoliyatning turli subyektlari bilan kasbiy va shaxsiy o'zaro munosabatlarni bashorat qila olish;

6) **funksional komponent:** a) kognitiv-aksiologik darajada: yuqori ijtimoiy va ijodiy faollik, tashabbuskorlik, o'z faoliyati mahsulotlari uchun jamiyat, boshqa odamlar, kasbiy guruh va o'zi oldida javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati, b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog'liqlikda: pedagogik jarayon subyektlari harakatlarining motivatsiyasini tushunish, refleksiv bog'liqlikda: o'qituvchining amaliy individual usullar va texnikalar tizimiga ega bo'lishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, [www// lex. Uz](http://www.lex.uz)
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha ta'lim deklaratsiyasi. Bosh Assambleyaning 2011-yil 19-dekabrdagi 66/137-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan.// https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/hr_education.shtml
3. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. «Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам)». — М.: Издательство ИКАР, 2009 -446 с
4. Каминская, В.И. Правосознание как элемент правовой культуры/ В.И. Каминская, А.Р. Ратинов// Правовая культура и вопросы правового воспитания. М., 1974. - 57с
5. Кепмаева Г.М. Основы педагогической деонтологии: учеб. пособие. Павлодар, 2009
6. Коротун, А.В. Формирование правовой компетенции у будущих социальных педагогов в процессе профессиональной подготовки: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / А.В. Коротун. — Екатеринбург, 2010. — 279 с.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovaya-kompetentnost-sovremennogo-uchitelya-obschestvennyh-distiplin>